

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

AKADEMIK KENGASHNING 7-MAJLISI BAYONNOMASI

2025-yil 6-mart

Toshkent – 2025

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
AKADEMIK KENGASHI MAJLISINING
7-BAYONNOMASI

Toshkent shahri

2025- yil 6-mart

Qatnashdilar:

A'zolar: S.Safayev (rais), A.Umarov (rais o'rinnbosari), M.Abduraxmanova (Akademik kengash kotibi), O.Yusupdjanov, G.Ismailova, Sh.Abdullayev, A.Xaydarov, A.Turdimatov, I.Xamedov, M.Xamdamov, Sh.Arapov, L.Xodjayev, B.Salaxitdinov, O.Mannopova, E.Sultanova, G.Raimova, U.Sharipova, L.Tashpulatova, I.Yakubov, Sh.Masadikov, R.Yusufaliyeva, Y.Borisova, V.Mamatkasimova, X.Gafurova, N.Raimova, A.Rasulov, N.Muminova, M.Abdullayeva, A.Abdullayev, , N.Sirajiddinov

Doimiy taklif qilinganlar: U.Dustov, A.Nasirov, M.Siddikova, I.Mo'minov, Sh.Shakirova, , , B.Xasanov.

Qatnashmadilar: A'zolar: U.Xasanov, M.Baqoyev

Doimiy taklif qilinganlar: F.Tashev, M.Sheraliyev, A.Xakimov

KUN TARTIBI:

Masala T/r	Mazmuni	Taqdimotchi va mas'ullar	Hujjat kodi
7-1	Universitetni raqamlashtirish, transformatsiya qilish bo'yicha yo'l xaritasini tasdiqlash	Transformatsiya, raqamlashtirish va iqtisodiy masalalar bo'yicha prorektor M.Djalalov	A
7-2	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 14-fevral kuni yoshlar bilan muloqoti mazmunidan kelib chiqadigan masalalar bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqish	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O.Yusupdjanov	B
7-3	2025-yilning 8,14 va 15-fevral kunlarida tashkillashtirilgan JIDU xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish jarayoni natijalari to'g'risida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O.Yusupdjanov	D
7-4	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Akademik nizomiga qo'shimcha va	Akademik ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Umarov	E

	o'zgartirishlar kiritish to'g'risida	Akademik va o'qituvchilar ishlari ofisi boshlig'i U. Dustov	
7-5	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 20-fevraldag “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Akademik litseyning moddiy- texnika bazasini mustahkamlash hamda mavjud o'quv binosini mukammal ta'mirlash to'g'risida”gi 84-F-son farmoyishining ijrosini ta'minlash to'g'risida	Akademik litsey ijrochi direktori O. Mannopova	F
7-6	Turli masalalar 1) Grant loyihalarini tasdiqlash to'g'risida 2) Mustaqil izlanuvchilarni tasdiqlash	Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova	G H

Akademik kengash kotibi M.Abduraxmanova – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining “Oliy o'quv yurtining Ilmiy kengashi to'g'risida”gi Nizomiga muvofiq Akademik kengash majlisini boshlashga yetarli kvorum bor ekanligini ma'lum qildi.

Bildirilgan mulohazalar:

Akademik kengash a'zolari majlisni boshlashni bir ovozdan ma'qulladilar.

1-MASALA. Universitetni raqamlashtirish, transformatsiya qilish bo'yicha yo'l xaritasini tasdiqlash to'g'risida (Hujjat A)

ESHITILDI: Universitetni raqamlashtirish va transformatsiya qilish bo'yicha JIDU Raqamli transformatsiya va iqtisodiy masalalar bo'yicha prorektori **M.Djalalovning** axboroti tinglandi. Universitetni raqamlashtirish va transformatsiya qilish bo'yicha yo'l xaritasi taqdim etildi.

Bildirilgan mulohazalar:

Universitetni raqamlashtirish va transformatsiya qilish bo'yicha yo'l xaritasi Akademik kengash a'zolari tomonidan fikr-mulohazalar va takliflar berildi.

QAROR QILINDI:

1. Universitetni raqamlashtirish va transformatsiya qilish bo'yicha JIDU Raqamli transformatsiya va iqtisodiy masalalar bo'yicha prorektori **M.Djalalovning** axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitetni raqamlashtirish va transformatsiya qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" asos uchun qabul qilinsin.

3. Universitetga xorijiy investitsiyalar, beg'araz ko'mak va grant mablag'larini jalb etish va o'zlashtirish uchun mas'ul etib Raqamli transformatsiya va iqtisodiy masalalar bo'yicha prorektor M.Djalalov belgilansin.

4. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazorat o'z zimmamda qoldiraman.

2-MASALA. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 14-fevral kuni yoshlar bilan muloqoti mazmunidan kelib chiqadigan masalalar bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqish to'g'risida (Hujjat B)

ESHITILDI: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2025-yil 13-14 fevral kunlari "Olimpiya va paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish, ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish" hamda "Yoshlar bilan ishlash natijadorligini yanada oshirish chora-tadbirlari" yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor **O.Yusupdjanov** axborot berdi. Universitet professor-o'qituvchilarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini baholash (KPI) mezonlarini qayta ko'rib chiqish; universitet talabalarining "Ijtimoiy faollik indeksi"ni joriy etish; universitetda har haftalik "Ma'rifat dars"larini malakali professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkazish; respublika oliy ta'lim muassasalari o'rtasida "Yashil oliygoh" loyihasini amalga oshirish, "Inkubatsiya va akseleratsiya" markazi faoliyatini jonlantirish kabi masalalarga bat afsil to'xtaldi.

Yo'l xaritasi Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2025-yil 13-14 fevral kunlari "Olimpiya va paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish, ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish" hamda "Yoshlar bilan ishlash natijadorligini yanada oshirish chora-tadbirlari" yuzasidan belgilangan universitet oldiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirilish uchun tuzilgan yo'l xaritasi asos uchun qabul qilinsin.

2. Yo'l xaritada ko'rsatilgan ijrochi mas'ullarning o'z vaqtida topshiriqlar ijrosini ta'minlash nazorati Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor **O.Yusupdjanovga** yuklatilsin.

3-MASALA. JIDU xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish jarayoni natijalari to'g'risida (Hujjat D)

ESHITILDI: O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi BR-86-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi" Nizom, JIDUning 2025-yil 22-yanvardagi 12-UM va 31-yanvardagi 15-UM-sonli buyruqlariga muvofiq, 2025-yilning 8-, 14- va 15-fevral kunlari JIDU xodimlari attestatsiyasi bo'yicha Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor **O.Yusupdjanovning** axboroti tinglandi. Universitet xodimlarining attestatsiyasi natijalari yuzasidan 2025-yil 31-yanvardagi 15-UM-sonli buyruqda 108 nafar xodim attestatsiya qilinishi ko'rsatilgani, shundan 104 nafar xodimdan (61 nafari o'tgan, 23 nafari shartli o'tgan va 20 nafari o'tmagan) attestatsiya qilingani to'g'risida ma'lumot berildi.

QAROR QILINDI:

1. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi BR-86-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi" Nizom, JIDUning 2025-yil 22-yanvardagi 12-UM va 31-yanvardagi 15-UM-sonli buyruqlariga muvofiq, 2025-yilning 8-, 14- va 15-fevral kunlari JIDU xodimlarining attestatsiyasi bo'yicha natijalar axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4-MASALA. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Akademik nizomiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida. (Hujjat E)

ESHITILDI: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Akademik nizomiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar to'g'risida Akademik va o'qituvchilar ishlari ofisi boshlig'i U. Dustovning axboroti tinglandi. O'quv jarayonining yagona mexanizm sifatida uzluksiz ishlashini ta'minlash maqsadida mazkur nizom matnidagi ayrim bandlarga aniqlik yoki qo'shimchalar kiritishga ehtiyoj bo'lgani sababli JIDU Akademik nizomining takomillashtirilgan shakli va kiritilgan qo'shimchalar mazmuni yuzasidan Akademik ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Umarov to'liq izoh berdi.

Bildirilgan mulohazalar:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Akademik nizomiga qo'shimcha va o'zgartirishlar Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektori A.Umarovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Akademik nizomi 7-4-E-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va 2024-2025 o'quv yili II semestridan amaliyotga joriy qilinsin.
3. Ilmiy kengashning mazkur qarorlari ijrosi yuzasidan nazorat Akademik ishlari bo'yicha birinchi prorektor A.Umarov zimmasiga yuklansin.

5-MASALA. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 20-fevraldagagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Akademik litseyning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda mavjud o'quv binosini mukammal ta'mirlash to'g'risida"gi 84-F-son farmoyishining ijrosini ta'minlash to'g'risida (Hujjat F)

ESHITILDI: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 20-fevraldagagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Akademik litseyning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda mavjud o'quv binosini mukammal ta'mirlash to'g'risida"gi 84-F-son farmoyishining ijrosini ta'minlash to'g'risida Akademik litsey irochi direktori O. Mannopovaning axboroti tinglandi.

Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. Mazkur masala bo'yicha Akademik litsey irochi direktori O. Mannopovaning ma'lumoti va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Akademik litseyning o'quv hamda yordamchi bino va inshootlarini mukammal ta'mirlash, litsey hududini obodonlashtirish, o'quvchilar va tashrif buyuruvchi mehmonlar uchun yotoqxona hamda regbi-futbol maydonini barpo etish ishlarini samarali amalga oshirish va qat'iy nazorat qilish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri JIDU Rektori bo'ysinuvida bo'lgan "Kapital qurulish ofisi" tashkil etish choralar ko'rilsin va uni shtat jadvali 7A-5-F-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Akademik kengashning mazkur qarori ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

TURLI MASALALAR

6.1. Grant loyihalarini tasdiqlash to'g'risida. (Hujjat G)

ESHITILDI:

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **G.Ismailova** axborot berdi. So'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e'lon qilingan, bajarilishi 2025-2027-yillarga mo'ljallangan Italiya Ta'lim, universitet va tadqiqot vazirligi (MIUR) bilan hamkorlikda Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan amaliy tadqiqot va innovatsion loyihalar bo'yicha "O'zbekiston - Italiya" xalqaro qo'shma tanlovida ishtirok etish uchun "Mediatsiya va arbitraj markazi"ni tashkil etish loyihasi yuzasidan **Sh.Masadikovning** axboroti tinglandi.

"Turkiya va O'zbekiston sanoat sektorida chiqindilarni boshqarish va aylanma (sirkulyar) iqtisodiyot: to'qimachilik sanoatida resurslar samaradorligi va qayta ishlash amaliyotlari" mavzusidagi grant loyihasi **N.Sirajiddinov** boshchiligida amalga oshirilishi bo'yicha axboroti tinglandi. (**Hujjat G**)

QAROR QILINDI:

1. 2025-2027 yillarga mo'ljallangan "Mediatsiya va arbitraj markazi"ni tashkil etish mavzusiga bag'ishlangan loyihasi (loyiha rahbari: Sh.Masadikov) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e'lon qilingan Italiya Ta'lim, universitet va tadqiqot vazirligi (MIUR) bilan hamkorlikda Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan amaliy tadqiqot va innovatsion loyihalar bo'yicha "O'zbekiston - Italiya" xalqaro qo'shma tanloviga **taqdim etilsin**.

2. Turkiya Respublikasi Ilmiy va texnologik tadqiqotlar kengashi (TUBITAK) bilan hamkorlikda Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan amaliy tadqiqotlar va innovatsion loyihalar bo'yicha "O'zbekiston-Turkiya" xalqaro qo'shma tanlovi "Turkiya va O'zbekiston sanoat sektorida chiqindilarni boshqarish va aylanma (sirkulyar) iqtisodiyot: to'qimachilik sanoatida resurslar samaradorligi va qayta ishlash amaliyotlari" mavzusidagi loyihasi (loyiha rahbari: N. Sirajiddinov) O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Innovatsion rivojlanish agentligi" hujjatlari xalqaro qo'shma tanloviga **taqdim etilsin**.

6.2. Mustaqil izlanuvchilarini tasdiqlash to'g'risida (Hujjat H)

ESHITILDI:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydag'i "Oliy ta'lifdan keyingi ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qaroriga muvofiq JIDU 2025-yil 2-chorakda mustaqil izlanuvchilik institutiga kiruvchilar to'g'risida Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **G.Ismailova** ma'lumot berdi.

Bildirilgan mulohazalar:

Ma'lumot Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydag'i "Oliy ta'lifdan keyingi ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qaroriga muvofiq JIDU 2025-yil 2-chorakda mustaqil izlanuvchilik institutiga kiruvchilar ro'yxati 7-6-H-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Akademik kengash raisi



S.S. Safoyev

Akademik kengash kotibi

M.D. Abduraxmanova